Qurbonova Farangiz Mirzayevna (Termiz davlat Muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi; E-mail: kurbonova98@gmail.com)

METAFORIK MODELLAR VA MADANIYATLARARO TAFOVUT: MAQSADGA YO‘NALTIRILGAN FRAZEOLOGIZMLARNING TALQIN MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida maqsadga yo‘naltirilganlikni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida diqqatni jamlash, qat’iyat va iroda, mehnatsevarlik hamda yuksak ambitsiyani ifodalovchi frazeologizmlar guruhlarga ajratilib, ularning mazmuniy o‘xshash va farqli jihatlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklar orqali milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va umuminsoniy konseptlarning til vositasida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, maqsadga yo‘naltirilganlik, semantika, lingvokulturologiya, metafora, qat’iyat, mehnatsevarlik.*

Курбонова Фарангиз Мирзаевна (преподаватель Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий; E-mail: kurbonova98@gmail.com)

МЕТАФОРИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ И МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ: ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЦЕЛЕНАПРАВЛЕННЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются семантические и лингвокультурные особенности целенаправленных фразеологических единиц в узбекском и английском языках. В ходе исследования классифицируются идиомы, выражающие сосредоточенность, целеустремлённость, усердие и высокие амбиции, а также выявляются их сходства и различия в значении. Показано, каким образом национальный менталитет, культурные ценности и универсальные концептуальные модели находят отражение во фразеологических выражениях.*

Ключевые слова: *фразеологическая единица, целеустремлённость, семантика, лингвокультурный анализ, метафора, решимость, усердие.*

Qurbonova Farangiz Mirzayevna (Lecturer at Termez State University of Engineering and Agrotechnologies; E-mail: kurbonova98@gmail.com)

METAPHORICAL MODELS AND INTERCULTURAL DIFFERENCES: PROBLEMS OF INTERPRETING GOAL-ORIENTED PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation. *This article analyzes the semantic and linguocultural features of goal-oriented phraseological units in Uzbek and English. The study classifies idioms expressing focus, determination, diligence, and high ambition, and highlights their similarities and differences in meaning. It also demonstrates how national mentality, cultural values, and universal conceptual models are reflected through phraseological expressions. The findings are significant for the fields of phraseology, linguocultural studies, and translation studies.*

Keywords: *phraseological unit, goal orientation, semantics, linguocultural analysis, metaphor, determination, diligence.*

Kirish (Introduction). Frazeologik birliklar oddiy so‘z birikmalaridan farqli ravishda majoziy ma’noni bildiruvchi turg‘un birikmalar sanaladi. Ular nutqda qo‘llanganda ifodaning bo‘yoqdorligini kuchaytiradi va obrazlilikni ta’minlaydi. Tilshunos Sh.Rahmatullayev ushbu birliklar adabiyotlarda “frazeologizm” yoki “frazeologik birlik” deb yuritilishini qayd etib, “leksema” va “morfema” atamalariga o‘xshash tarzda ularni “frazema” deb nomlashni ma’qul ko‘radi [10;6-b.]. Olimning ta’kidlashicha, frazema kamida ikki leksemadan tashkil topadi hamda ikki yoki undan ortiq leksemaning semantik-sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘lanib, umumlashgan ko‘chma ma’no hosil qilishi natijasida yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Metafora, odatda, she’riy va ritorik obrazlilikka ega bo‘lgan ifoda vositasi sifatida tushuniladi hamda u kundalik oddiy nutqdan ko‘ra noodatiy til hodisasiga yaqin deb qaraladi. Bundan tashqari, ko‘pincha, metafora faqat tabiiy tilga xos hodisa, ya’ni, so‘zlar sohasi bilan bog‘liq bo‘lib, tafakkur yoki harakat jarayonlariga daxldor emas deb hisoblanadi. Shu sababli ko‘pchilik odamlar hayotda metaforalarsiz ham bemalol yashash mumkin, degan fikrga keladi.

I.I.Chernisheva ta’kidlaganidek, frazeologizmlarda konnotatsiyaning namoyon bo‘lishi o‘zgaruvchan so‘z birikmasining to‘liq yoki qisman metaforalashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi; bu esa frazeologizm turiga qarab farqlanadi. Frazeologik birliklarda semantik siljish so‘z birikmasiga, frazeologik ifodalarda esa predikativ birikmalarga taalluqli bo‘lib, natijada ma’noni obrazli tarzda asoslovchi frazeologik obraz yuzaga keladi. Bunday obraz keng semantik qamrovga ega bo‘lib, matn ichida vaziyatga mos holda aniqlashtirilish imkoniyatini beradi [10;56-b.].

Frazeologizm ma’nosining konnotativ qismi komponent tarkibining o‘zgarishi orqali uning ekspressiv kuchini yanada oshirish salohiyatiga ega. Aynan shu jihat konnotatsiyaning alohida shakllangan birlik-

lar orqali ifodalanish xususiyatini belgilaydi. Frazeologik ma'noning o'zgarishi, asosan, ikkilamchi frazeologik nominatsiya jarayonida qayta talqin qilish orqali yuz beradi. Bu jarayon oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy qayta talqin natijasida shunday frazeologik birliklar hosil bo'ladiki, ularning dastlabki manbayi o'zgaruvchan so'z birikmalari yoki gaplar bo'lib, yangi ma'no aynan shu prototiplar orqali vositalangan holda shakllanadi [4;78-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqsadga yo'naltirilgan frazeologizmlarning talqin muammolariga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil, semantik tahlil kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy ingliz tilida insonning maqsad sari intilishi, qat'iyati hamda mehnatsevarligini ifodalovchi ko'plab frazeologik birliklar mavjud. Bunday iboralar nafaqat nutqning obrazliligini kuchaytiradi, balki shaxsning psixologik holati, irodaviy sifati va harakat strategiyasini ham aks ettiradi. Maqsadga diqqatni jamlash mazmunini ifodalovchi birliklar qatoriga *keep your eye on the prize*, *keep your eye on the ball* hamda *zero in on something* kabi iboralar kiradi. Ushbu frazeologizmlar insonning yakuniy natijaga yo'naltirilgan holda harakat qilishi, vaziyatni diqqat bilan kuzatishi va muayyan vazifaga to'liq e'tibor qaratishini bildiradi. Ularning semantik yadrosi "fokusni yo'qotmaslik" konsepti bilan bog'liq. Qat'iyat va tashabbusni ifodalovchi frazeologizmlar orasida *go-getter*, *take the bull by the horns* hamda *where there's a will, there's a way* alohida o'rin tutadi. Bu birliklar insonning faol, jasoratli va muammolarni to'g'ridan to'g'ri hal eta oladigan xarakterini tasvirlaydi. Ayniqsa, oxirgi ibora irodaga asoslangan imkoniyat g'oyasini ifodalovchi universal paremiologik model sifatida namoyon bo'ladi. Maqsad sari tinimsiz mehnat qilish semantik maydoni esa *put your nose to the grindstone*, *knuckle down / buckle down* va *go the extra mile* kabi iboralar orqali ifodalanadi. Ular uzluksiz mehnat, mas'uliyatni chuqur his etish hamda kutilganidan ortiq sa'y-harakat qilish tushunchalarini anglatadi. Bunday frazeologizmlar mehnat etikasi va natijaga yo'naltirilganlikni aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Shuningdek, juda yuksak va ulkan maqsadlarni ko'zlagan shaxsni tasvirlash uchun *shoot for the stars* iborasi qo'llanadi [2;101-b.]. Bu frazeologizm metaforik jihatdan "eng yuqori cho'qqiga intilish" g'oyasini ifodalaydi va ambitsiya darajasining yuqoriligini ko'rsatadi:

Keep your eye on the prize – yakuniy natijaga diqqatni jamlab, qiyinchiliklarga chalg'imaslik.

Keep your eye on the ball – vaziyatni diqqat bilan kuzatib, e'tiborni yo'qotmaslik (sportdan kelib chiqqan).

Zero in on something – muayyan vazifa yoki maqsadga to'liq e'tibor qaratish.

Go-getter – muvaffaqiyatga o'zi erishadigan, tashabbuskor va maqsadga intiluvchan shaxs.

Take the bull by the horns – muammoni to'g'ridan to'g'ri va qat'iy hal qilish ("buqani shoxidan ushlamoq").

Where there's a will, there's a way – istak bo'lsa, yo'l topiladi.

Put your nose to the grindstone – jon-jahdi bilan uzluksiz ishlash.

Knuckle down / Buckle down – jiddiy kirishib, barcha kuchni ishga safarbar etish.

Go the extra mile – kutilganidan ortiq harakat qilib, qo'shimcha sa'y-harakat ko'rsatish.

Shoot for the stars – eng yuqori cho'qqilarni maqsad qilish, nihoyatda katta ambitsiyaga ega bo'lish. Bu metafora insonning cheksiz imkoniyatlarga intilishini obrazli tarzda ko'rsatadi [3;19-b.].

O'zbek tilida insonning maqsad sari intilishi, qat'iyati, mehnatsevarligi va yuksak orzu-intilishlarini ifodalovchi ko'plab frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular xalqning hayotiy tajribasi va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqdir. Bunday iboralar orasida diqqatni maqsadga jamlashni bildiruvchi ko'zini maqsaddan uzmaslik, butun e'tiborini bir joyga jamlamoq kabi birliklar alohida o'rin tutadi. Ular insonning chalg'imasdan yakuniy natija sari harakat qilishini anglatadi. Qat'iyat va iroda mazmuni esa bel bog'lamoq, ortga chekinmaslik, tish-tirnog'i bilan yopishmoq, shuningdek, xalq orasida keng qo'llanadigan niyat bo'lsa, yo'l topiladi maqoli orqali ifodalanadi. Maqsadga erishishda mehnatning ahamiyati jon kuydirib ishlamoq, tinim bilmay mehnat qilmoq, ter to'kmoq, bor kuchini ishga solmoq kabi iboralarda yaqqol namoyon bo'ladi; bu birliklar o'zbek xalqining mehnatsevarlikni yuksak qadriyat sifatida baholashini ko'rsatadi. Yuksak marrani ko'zlash g'oyasi esa yulduzni ko'zlamoq, katta niyat qilmoq, cho'qqini zabt etmoq singari obrazli ifodalarda mujassam bo'lib, ularda balandlik va cho'qqi timsoli muvaffaqiyat hamda eng oliy natijaga erishish istagini anglatadi. Umuman olganda, mazkur frazeologizmlar maqsad sari intilish tushunchasi umuminsoniy ekanini, biroq uning ifodalanish shakli har bir xalqning madaniyati va tafakkuri bilan belgilanib, milliy o'ziga xoslik kasb etishini ko'rsatadi [4;119-b.].

Xulosa va takliflar. (Conclusion /Recommendations). Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillarida maqsadga yo'naltirilganlikni ifodalovchi frazeologik birliklar semantik jihatdan o'xshash konseptual maydonga ega bo'lib, ular, asosan, diqqatni jamlash, qat'iyat va iroda, mehnatsevarlik hamda yuksak ambitsiya kabi ma'no guruhlarida namoyon bo'ladi. Har ikki tilda ham maqsad sari intilish

insonning faol harakati, ichki kuchi va uzluksiz mehnati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning obrazli asosida milliy-madaniy xususiyatlar yaqqol seziladi: ingliz tilida individual muvaffaqiyat, tashabbuskorlik va natijadorlik g‘oyalari kuchliroq aks etsa, o‘zbek tilida jamoaviylik, sabr-toqat va fidoyilik kabi qadriyatlar ustuvor ko‘rinadi. Bu holat maqsadga yo‘naltirilganlik konsepti umuminsoniy mazmunga ega bo‘lsa-da, uning til orqali ifodalanishi har bir xalqning tarixiy tajribasi va madaniy dunyoqarashi bilan belgilanib, o‘ziga xos semantik rang-baranglik kasb etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, “Sharq”, 2010.

(2). Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin”, 2005.

(3). Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi. O‘quv qo‘llanm, Toshkent, “Navro‘z”, 2019.

(4). Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiyoti: darslik. Toshkent, “Universitet”, 2016, 420-bet.

(5). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. Toshkent, “Universitet”, 1992.

(6). Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. Москва, “Наука”, 1977.

(7). Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз., Москва, “Высш. шк.”, Дубна, изд. центр «Феникс», 1996.

(8). Чайко Т.Н. Названия частей тела как источник метафоры в апеллятивной и ономастической лексике. “Вопросы ономастики”. 1974, № 8–9, с. 98–106.

(9). Чердынцева Т.З. Метафора и символ во фразеологических единицах. Метафора в языке и тексте. Москва, “Наука”, 1988, с. 78–92.

(10). Чернышева И.И. Актуальные проблемы фразеологии. “Вопросы языкознания”, 1977, №5, с.53–60.

Sadiqov Zoxid Yaqubjanovich (NamDU, filologiya fanlari doktori),
Rajapova Ro‘zigul Mansurbek qizi (Urganch davlat universiteti magistranti)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI GENDER XUSUSIYATLARINI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLARDA AYOL TASVIRI

Annotatsiya. *Bu maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi ayol obrazi qatnashgan maqollar qiyoslab o‘rganildi. Ushbu tadqiqot ishi davomida ikkala xalq maqollarida ayollarga berilgan tasvirlar lingvokultorologik jihatdan tahlil qilinib o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Maqolada maqollarni o‘rganish chog‘ida ularni tur xil tematik guruhlarga bo‘lib o‘rganish olib borildi.*

Kalit so‘zlar*: ayol, go‘zallik, turmush o‘rtoq, ona, uy bekasi, kelin.*

Садыков Зохид Якубжанович (НамГУ, доктор филологических наук),
Раджапова Рузигуль Мансурбек кизи (магистрантка Ургенчского государственного университета)

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПОСЛОВИЦАХ, ОТРАЖАЮЩИХ ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ, НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье сравниваются английские и узбекские пословицы, в которых изображен образ женщины. В ходе исследования образы женщин в обеих народных пословицах были проанализированы лингвистически и культурно, выявлены их сходства и различия. В процессе изучения пословиц в статье они были разделены на различные тематические группы.*

Ключевые слова*: женщина, красота, супруга, мать, домохозяйка, невеста.*

Sadiqov Zoxid Yaqubjanovich (NamSU doctor of philology),
Rajapova Ruzigul Mansurbek kizi (master of Urgench State University)

THE IMAGE OF WOMEN IN PROVERBS REFLECTING GENDER CHARACTERISTICS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *This article compares proverbs in English and Uzbek that feature the image of women. In the course of this research, the images of women in both folk proverbs were analyzed linguistically and culturally, and their similarities and differences were identified. In the course of studying the proverbs in the article, they were divided into various thematic groups to explore.*

Keywords*: woman, beauty, spouse, mother, housewife, bride.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda gender masalasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan maqollar gender rollarining tarixiy va madaniy shakllanishini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Maqollar xalqning ijtimoiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va qadriyatlarini mujassam etgan ixcham, lekin mazmunan serqatlam birliklardir.

Adabiyotlar tahlili. G‘.Salomov maqolga shunday ta’rif beradi: Maqol turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal, umumiy ma’noga anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir [1;265-b.]. U.Ahmedova xalq maqollari ommaning muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o‘zaro mukammal tarzda mujassamlashtirgan o‘ziga xos badiiy shaklga ega bo‘lgan ifoda va iboralardan iborat